

CHANG CHOLG‘USIDA SHASHMAQOM KUYLARINI INTERPRETATSIYA QILISH USULLARI

Toshpo‘latova Zulxumor Davlatboy qizi

*Samarqand davlat pedagogika instituti “Musiqqa ta’limi va san’at” mutaxassisligi
magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz musiqasining durdonasi hisoblangan Shashmaqom kuylarini chang cholg‘usida ijro etish va interpretatsiya qilish jarayoni tahlil qilingan. Chang cholg‘usining imkoniyatlari va texnik xususiyatlari asosida Shashmaqom kuylaridagi o‘ziga xosliklar ochib berilgan. Shuningdek, chang cholg‘usida maqom kuylarini turlicha talqin etish ijrochi shaxsiy mahorati, musiqiy dunyoqarashi va estetik qarashlari bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: chang cholg‘usi, Shashmaqom, maqom, kuy, interpretatsiya, ijro usullar.

Shashmaqom o‘zbek mumtoz musiqasining eng qadimiy durdonalaridan biri bo‘lib, o‘zining murakkabligi va mukammalligi, usul tuzilmalari hamda serqirra kuy-ohanglari bilan ajralib turadi. Shashmaqom kuy va ashularini kelajak avlodga yetkazish, tinglashga va ijro etishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttirish bugungi kunda muhim va dolzarb mavzulardan biridir. Shashmaqomning chuqur mazmunini to‘laqonli ochib berishda cholg‘u ijrochiligining o‘rni beqiyosdir. An’anaviy cholg‘ular ichida chang alohida e’tiborga loyiq bo‘lgan cholg‘u bo‘lib, uning jarangdor ovozi va keng diapazoni orqali Shashmaqom kuylarini yanada serjilo va o‘ziga xos uslubda interpretatsiya qilish imkonini beradi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, chang qadimdan musiqa anjumanlarida, maqom kechalari va turli marosimlarda muhim cholg‘ulardan biri bo‘lib kelgan. Bugungi kunda ham chang ijrochiligi milliy musiqa merosining ajralmas bo‘lagi sifatida rivojlanib, yo‘nalish sifatida o‘qitiladi.

Shashmaqom kuylarining chang cholg‘usidagi talqinini o‘rganish bir tomondan tarixiy-madaniy merosni chuqur anglashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan zamonaviy ijrochilik tendensiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada chang cholg‘usining maqom ijrochiligidagi o‘rni, Shashmaqom kuylarini interpretatsiya qilishning an’anaviy va hozirgi davrga xos ijro usullari yoritiladi.

“Maqom” atamasi arabcha bo‘lib, ko‘p ma’nolarni, shu jumladan, “o‘rin”, “joy”, “daraja”, “martaba”, “manzilgoh” kabi tushunchalarni ifodalaydi. Musiqada esa dastlab “cholg‘u asboblarida tovush hosil etiladigan joy”[1] (I. Rajabov), ya’ni parda ma’nosiga bog‘liqdir. Yana boshqa ko‘pgina mazmun jihatlari ham aynan shu pardalarga bevosita bog‘lanadi: maqom — bu mukammal pardalar uyushmasi va doira usullari mushtarakligida ijod etilgan cholg‘u kuy va ashulalar turkumidir.

Shashmaqom XVIII asr o‘rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan Olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda etilgan edi. Bunda olti xil mukammal parda-tuzuklar uyushmasi bosh omil sifatida olinib, ularning muayyan doira usullari bilan (birikuv) birligi asosida ijod etilgan cholg‘u kuy va aytim (ashula) yo‘llari alohida-alohida turkumlarga birlashtirilgan. Demak, Shashmaqom, eng avvalo, oltita mukammal pardalar uyushmasini anglatar ekan. Maqom cholg‘u kuy va aytim (ashula) turkumlari esa, ana shu mukammal pardalarning ma’lum doira usullari bilan mushtarakligi natijasida yuzaga keladi.

Shashmaqomdagi har bir maqom ikki yirik bo‘limdan — cholg‘u va aytim (ashula) yo‘llari (turkumlari) dan iborat bo‘lib, ularni “ustoz-shogird” an’anaviy maktabida tahsil ko‘rgan malakali kasbiy cholg‘uchi va ashulachi-hofizlargina mukammal ijro eta oladilar.

Maqomlarni besh chiziqli nota tizimi asosida yozib olish ishlari XX asr davomida bir necha bor amalga oshirilgan. Xususan, taniqli kompozitor va etnograf V.A. Uspenskiy (1879–1949) XX asrning 20-yillarida Buxoro shahrida maqomchi ustozlar hofiz Ota Jalol Nosirov va tanburchi Ota G‘iyos Abdug‘anilar ijrosida salobatli Olti maqom tizimini ilk bor nota yozuvlarida muhrlagan. Shuningdek, akademik Yunus Rajabiy (1897–1976) ham Olti maqom tizimini ikki marotaba — 1950-yillarda hamda 1960–70-yillar davomida mukammal tarzda nota yozuvlari asosida bosmadan chiqargan.[2]

Bugungi kunda Shashmaqom va umuman maqom san’atini asrab-avaylash, ilmiy jihatdan o‘rganish va keng targ‘ib etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Shashmaqom san’atini rivojlantirish, uni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish hamda yosh avlodga yetkazishga qaratilgan qarorlarida maqom san’atini notaga olish, ilmiy tadqiq etish va ta’lim tizimiga joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu qarorlar maqomlarning tarixiy manbalar asosida o‘rganilishi, ijrochilik an’analarining uzluksiz davom ettirilishi hamda zamonaviy musiqiy ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishiga mustahkam zamin yaratdi.

Shu jihatdan, XX asrda boshlangan maqomlarni nota tizimida qayd etish an'analari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmay, davlat miqyosida qo'llab-quvvatlanayotgan muhim ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida rivojlanib bormoqda.

O'zbek an'anaviy cholg'ulari orasida o'ziga xos nafis va jozibali sadosi hamda murakkab tuzilishiga ega bo'lgan sozlardan biri – chang cholg'usidir. “Yozma manbalarga ko'ra XV, XVI asrlardan boshlab “chang” sozi musiqa hayotimizda ma'lum o'rin egallay boshlagan.” [3] Ungacha esa “chang” iborasi o'zbek musiqa madaniyatida butunlay o'zga soz – tirnab chalinadigan zamonaviy yevropacha arfaning bizda keng ishlatilgan qadimiy kichik hajmdagi namunasini anglatgan. Jumladan, Alisher Navoiyning buyuk asari “Xamsa”ning “Sabbai Sayyor” dostonidagi “chang” iborasi ham arfa tusidagi cholg'u sozini aniqrogi, qo'l arfasini anglatgan bo'lib, uning mohir ijrochilari sifatida Dilorom kabi ayol obrazlari tasvirlangani ham bejiz bo'lmagan. O'sha davrlarga xos arfasimon chang deyarli xotin-qizlarga mansub cholg'ulardan biri sifatida hatto, eramizdan oldingi asrlardayoq ishlatilgan. Ammo XVII asrlardan keyin bu qo'l arfasi ijrochilikdan chiqa boshlagan va o'rnini o'zga soz maxsus tayoqchalar bilan urib chalinadigan trapetsiya shaklida chang cholg'u asbobi egalladi.[4]

Shuningdek, Shashmaqom kuylarini chang cholg'usida ijro etish jarayonida bezaklar (forshlag, trill, mordent va glissando) hamda dinamik imkoniyatlardan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Chang cholg'usida maqom kuylarini interpretatsiya qilish ijrochidan yuqori darajadagi texnik mahorat, musiqiy tafakkur va estetik didni talab etishi ilmiy asosda yoritiladi. Natijada Shashmaqom kuylarini chang cholg'usida talqin etishning o'ziga xos usullari va ularning badiiy-ijroi ahamiyati aniqlab beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Rajabov.I.Maqomlar.-Toshkent, 2006.63-bet.
2. Oqilxon Ibrohimov,Jamil Sadirov.Musiqa.7-sinf uchun darslik.-Toshkent,2017.46-bet.
3. Rifatilla Qosimov “An'anaviy ijrochilik”. Toshkent. 2007 yil. 12-bet.
4. Hojimamatov Azimjon.Chang cholg'usi tarixiga bir nazar va uning ornamental bezaklari www.oriens.uz.2022.266-bet.